

1-MAVZU. SENTYABR- "MUSTAQILLIK VA O'ZBEKISTON YO'LI"

(3-hafta)



1-keys. "Islohotni qanday bahlaymiz?"



Vaziyat:

Ikki bitiruvchi bahslashdi.
Doniyor: "Yangi maktablar, yo'llar
va markazlar qurilsa, islohot
samarali bo'lganini ko'rish
mumkin", — dedi.

Madina esa: "Bino va
resursning o'zi yetarli emas,
odamlar hayotida qanday
natija bo'lganini ham baholash
kerak", — deb javob berdi.



Savollar:

- 1 Qaysi yondashuv tahliliy jihatdan kuchliroq?
Nega?
- 2 Resurs, faoliyat, natija va ta'sir o'rtasidagi
farq nimada?
- 3 Ta'lim sohasidagi bir islohotni qanday
beshta mezon asosida baholash mumkin?
- 4 Fuqarolar fikri islohot samaradorligini
baholashda qanday o'rin tutishi kerak?



Qiziqarli topshiriq:

"Muammo → resurs → amalga oshirish → natija → ta'sir" modeli bo'yicha ta'limga
oid bitta islohotni tahlil qiling.



1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(3-hafta)



2-keys. “2030-yilda menga qanday O‘zbekiston kerak?”



Vaziyat:

Siz 17 yoshdasiz. 2030–yilda talaba, yosh mutaxassis yoki tadbirkor bo‘lishingiz mumkin. Sizdan: “Bugungi islohotlarning qaysi yo‘nalishi kelajagingizga eng katta ta‘sir qiladi?” — deb so‘rashdi.

Tanlovlar:



sifatli
ta‘lim



raqamli
texnologiyalar



tadbirkorlik



sog‘liqni
saqlash



ekologiya




ilm-fan va
innovatsiyalar

2030-yilda
menga qanday
O‘zbekiston
kerak?



Savollar:

- 1 Qaysi yo‘nalishni tanlaysiz va nega?
- 2 Bu sohada bugun qanday muammo mavjud deb o‘ylaysiz?
- 3 Qanday o‘zgarish eng katta natja berishi mumkin?
- 4 Davlat, jamiyat va yoshning o‘zi qanday mas‘uliyatni zimmasiga olishi kerak?



Qiziqarli topshiriq:

“Men islohotlarning kuzatuvchisi emas, faol ishtirokchisi bo‘lish uchun...” jumlasini to‘rtta aniq harakat bilan davom ettiring.

